



SOXTA TADBIRKORLIK JINOYATINING SUBYEKTIV BELGILARI

Ravshanov Surat Botir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati yo'nalishi magistri

ravshanovsurat03@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10039972>

ARTICLE INFO

Received: 17th Oktober 2023

Accepted: 25th Oktober 2023

Online: 25th Oktober 2023

KEY WORDS

ABSTRACT

Mazkur maqolada soxta tadbirkorlik jinoyatining subyektiv belgilari, yuridik fanda bugungi kunda o'rganilishi, uning o'ziga xos xususiyatlari haqida atroflicha to'xtalib o'tilgan.

Soxta tadbirkorlik jinoyatlarini kvalifikatsiya qilishda ularning obyektiv belgilari bilan bir qatorda subyektiv belgilariga oydinlik kiritish muhim, zaruriy ahamiyatga ega.

Jinoyat subyeksi deb, aqli raso, jinoiy qonunda belgilangan muayyan yoshga yetgan va Jinoyat kodeksi Maxsus qismi muayyan normalarida mustahkamlangan belgilarga ega bo'lgan jismoniy shaxs tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida ham shunday holat belgilangan¹.

Maxsus subyektlar o'zlariga berilgan tavsif bilan bog'liq bir yoki bir nechta belgilarga ega bo'lishlari mumkin. Chunonchi, aksariyat maxsus subyektlar, masalan, ona (O'zbekiston Respublikasi JK 99-moddasi), savdo yoki vositachilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs (O'zbekiston Respublikasi JK 188-moddasi), harbiy xizmatchi (O'zbekiston Respublikasi JK 295-302-moddalari) va boshqalar faqat bitta belgiga egadir. O'zbekiston Respublikasi JKning mazkur moddalariga muvofiq shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun, jinoyat tarkibining boshqa belgilari bilan bir qatorda, subyektning maxsus subyektivligini ko'rsatuvchi belgini aniqlash yetarlidir. M.X. Rustamboyev ham mazkur jinoyat subyektivining maxsus belgisi – savdo yoki tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxsdir, deb ta'kidlaydi².

Modda dispozitsiyasida maxsus subyektiv alomatlarining mavjudligi doimo ushbu moddaga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasini chegaralaydi. Shuning uchun ham maxsus subyektiv alomatlariga ega bo'lmagan shaxs mazkur qonunga muvofiq jinoiy javobgar bo'lishi mumkin emas. Ba'zi bir hollarda bu qilmishda jinoyat tarkibining yo'qligini bildiradi, ya'ni jinoyat maxsus subyektiv belgilariga ega bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, u jinoiy javobgarlikka tortilmaydi, boshqa hollarda esa, shaxs jinoiy javobgarlikka boshqa hollarda esa, shaxs jinoiy javobgarlikka boshqa normalar bo'yicha tortiladi, ya'ni jinoyat sodir etgan, ammo maxsus subyektiv alomatlariga ega bo'lmagan shaxs umumiy subyektiv jinoyatni sodir etganligi uchun javobgar bo'ladi³.

¹ Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus subyektiv. – T.: TDYuI, 2005. – B. 35.

² Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. – T.: Ilm-ziyo, 2006. – B. 425.

³ Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus subyektiv. – T.: TDYuI, 2005. – B. 41-42.



Tahlil qilinayotgan, ya'ni «Soxta tadbirkorlik faoliyati bilan xilof shug'ullanish» jinoyatining subyekti 16 yoshga yetgan, aqli raso, savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullangan har qanday jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 179-moddasi bo'yicha jinoyat subyekti tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan fuqarolar bilan birgalikda tadbirkorlik maqomini beruvchi hujjatlar to'xtatilgan yoki amal qilish muddati tugagan yoxud bekor bo'lgan taqdirda ham ular jinoyat subyekti bo'ladi.

«Soxta tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish» jinoyatini sodir etgan shaxsning 16 yoshda bo'lganligi uni ushbu jinoyat subyekti sifatida tan olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Jinoiy javobgarlik yoshi qonun chiqaruvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda belgilanmaydi, balki shaxsning ruhiy-fiziologik, ijtimoiy-ruhiy o'sish darajasini, shuningdek, kriminologik mezonlarini e'tiborga olgan holda qabul qilinadi. Mazkur xususiyatlarning yig'indisi insonning Jinoyat qonunida belgilangan yoshga yetishi, uning mazkur yoshdan boshlab Jinoyat kodeksida jinoiy qilmish kabi taqiqlangan xatti-harakatlarning ijtimoiy xavfliligini tushuna olishidan dalolat beradi.

«Soxta tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish» jinoyati subyekting keyingi belgisi bu shunday ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning aqli rasoligidir.

Jinoyat qonuni, jinoyat subyekti deb, faqat jismoniy shaxsni ya'ni, insonni tushunadi. Bu yuridik shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortilmasligini bildiradi. «Soxta tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish» jinoyatini kvalifikasiya qilishda bunga alohida e'tibor qaratish lozimdir. Sababi, deyarli aksariyat tadbirkorlik faoliyatining subyektlari bo'lib yuridik shaxslar hisoblanadi. Qonun talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, jinoyat uchun yuridik shaxs nomidan uning ta'sischisi konkret jismoniy shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Ikkala moddada nazarda tutilgan jinoyatlarning subyekt yoshi aynan bir xil, ya'ni 16 yosh qilib belgilangan. Lekin ba'zi yuridik adabiyotlarda qonunga soxta tadbirkorlik va boshqa ko'plab xo'jalik va iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun sub'ekt yoshi 16 yoshdan emas, balki 18 yoshdan bo'lishi kerakligi haqida fikrlar ham uchrab turadi. Qonunga xilof tadbirkorlik uchun javobgarlik yoshini 18 yosh qilib belgilash kerakligi haqidagi qarashlar, fuqarolik huquqidagi fuqaroning 18 yoshga to'lgandagi to'liq muomala layoqati bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 22-moddasi 1-qismiga ko'ra: «Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi». Lekin bu yerda yana Fuqarolik kodeksining 28-moddasiga ham e'tibor qaratish lozim. Unga ko'ra: «O'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan bo'lsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, u to'la muomalaga layoqatli deb topilishi mumkin». Bu fuqarolik qonunchiligida emansipasiya holati deb ataladi.

Ushbu jinoyatlarga nisbatan subyekt yoshi 16 yosh qilib belgilanganligini ham aynan Fuqarolik kodeksining ushbu normasi bilan asoslashimiz mumkin.



Jinoyatning subyektiv tomoni–shaxsning o‘zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishga va uning oqibatlariga uning ruhiy munosabatini ifodalaydi⁴.

«Soxta faoliyati bilan shug‘ullanish» jinoyati aybning qasd shakli bilan sodir etiladi. Sub'ektiv tomondan jinoyat to‘g‘ri yoki egri qasd bilan tavsiflanadi. Aybdor savdo yoki vositachilik faoliyati bilan ro‘yxatdan o‘tishdan bo‘yin tovlab, bunday holatda ro‘yxatdan o‘tish majburiy ekanligini bilgani holda shug‘ullanayotganligini biladi va shunday harakat qilishni xohlaydi.

Subyektiv tomonning zaruriy belgisi jinoyatni sodir etish maqsadi – nazorat qilinmaydigan foyda (daromad) olish hisoblanadi. Bunda nazorat qilinmaydigan daromad deganda, miqdoridan qat‘iy nazar, g‘ayriqonuniy faoliyatdan olinadigan daromad tushuniladi⁵. Plenum qarorida ham foyda va daromad tushunchalari aralashib ketgan.

Soxta tadbirkorlik jinoyatini klasifikatsiya qilish jarayonida JK ning 188-190-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga ham alohida e‘tibor berish lozim. Savdo yoki vositachilik faoliyatining ayrim turlari ham lisenziyalanishi lozim bo‘lganligi tufayli, JK 188- va 190-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni farqlash zarurati yuzaga keladi. Xususan, amaldagi qonunlarga muvofiq savdo faoliyatining ayrim turlari bilan shug‘ullanish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab qilinadi. Bunday ruxsatnomaning yo‘qligi, aybdor muqaddam shunday harakatlar uchun bir yil mobaynida Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 176-moddasi bilan ma‘muriy javobgarlikka tortilgan bo‘lsa, Jinoyat kodeksining 190-moddasi bo‘yicha javobgarlikni yuzaga keltiradi. Agar bunda aybdorning savdo faoliyatini faqat ruxsatnoma (litsenziya)siz amalga oshiribgina qolmay, balki ro‘yxatdan o‘tishdan ham bo‘yin tovlaganligi aniqlansa, uning harakatlari Jinoyat kodeksining 188- va 190-moddalari majmui bilan kvalifikatsiya qilinmog‘i lozim⁶.

Mazkur jinoyatlar uchun jazo tayinlash amaliyotini o‘rganish «Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug‘ullanish» va «Faoliyat bilan lisenziyasiz shug‘ullanish» harakatlari yoki boshqacha talqin qilganda «g‘ayriqonuniy tadbirkorlik» jinoyati subyektiv tomondan qasddan sodir etilishini ko‘rsatadi.

Ushbu jinoyatlar asosan aybdorlar tomonidan faqatgina to‘g‘ri qasddan sodir etilgan, ular foyda–daromad yoki boshqa to‘lanadigan obyektlarni yashirayotganligini anglagan holda sodir etadi, qilmishlaridan davlatga ma‘lum miqdorda ziyon yetishini oldindan tushunadilar va ayni shu oqibatlarni yuz berishini istaydilar yoki shaxs o‘zining qonunga xilof ravishda litsenziya olinishi shart bo‘lgan faoliyat bilan maxsus ruxsatnoma olmasdan shug‘ullanayotganligini anglaydi, lekin mazkur qilmishni sodir qilishni xohlaydi. Aybdorning mazkur qilmishni taqiqlanganligini anglaganligining isboti sifatida ayrim holatlarda uning ushbu faoliyat bilan shug‘ullanganligi uchun ma‘muriy jazoga tortilganligini keltirish mumkin.

Ushbu nuqtai nazar, ya‘ni g‘ayriqonuniy tadbirkorlik jinoyatining qasddan sodir etilishi haqidagi e‘tirof mazkur jinoyatni o‘rgangan ko‘plab olimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

⁴ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: ilmiy-amaliy sharhlar / A.S.Yakubov, R.Kabulov va b. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1997. – B. 31.

⁵ Olingan daromad miqdori faqat JK 188-moddasi qismlarining kvalifikatsiya qilish belgilari sifatida ahamiyatga ega. Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami. 1991-2006. 2 jildli. – T.: Adolat, 2006. Birinchi jild. – B. 121.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to‘plami. 1991-2006. 2 jildli. – T.: Adolat, 2006. Birinchi jild. – B. 52.



Ammo B.V.Yaselenkoning fikricha, mazkur jinoyat subyektiv tomondan to'g'ri yoki egri qasd bilan sodir qilinishi mumkin. T.V. Pinkevich ham B.V.Yaselenkoning ushbu fikrini qo'llab-quvvatlanadi⁷. Bizningcha, esa g'ayriqonuniy tadbirkorlik jinoyatlari ko'pincha to'g'ri qasddan sodir etiladi. Ya'ni, shaxs belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishdan bo'yin tovlab, nazorat qilinmaydigan foyda olish maqsadida savdo yoki vositachilik faoliyatini amalga oshirish yoki litsenziya olinishi shart bo'lgan faoliyat bilan maxsus ruxsatnoma olmasdan shug'ullanishning ijtimoiy xavfli xususiyatini angelaydi, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetadi va ularning yuz berishini istagan holda sodir bo'ladi.

Lekin «Soxta tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish» jinoyatining subyektiv tomonidan farqli ravishda, «Faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish» jinoyatining motiv va maqsadi har xil bo'lishi mumkin, qonun normasining ma'nosidan kelib chiqadigan bo'lsak, ushbu jinoyat turining motivini g'araz niyatlar tashkil etadi, ammo ular qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi. B.V. Voljenkin jinoyatning motivi deb odatda, qonunda ko'rsatilmagan bo'lsa-da g'araz niyatni ko'rsatadi. N.A. Lopashenko o'z navbatida mazkur jinoyatning motiv va maqsadi turli xil bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, qonun mohiyatidan kelib chiqqan holda shuni tushunish kerakki, jinoyatning motivida asosan g'arazli niyatlar yotadi⁸. Lekin bu g'arazli motivlarni o'zlashtirish yoki poraxo'rlik jinoyatlaridagi g'arazli motivning ijtimoiy xavflilik darajasiga tenglashtirib bo'lmaydi⁹.

Jinoyat kodeksining 179-moddasida nazarda tutilgan «Soxta tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish» jinoyatining sub'ekti 16 yoshga yetgan, aqli raso, qonunga binoan kreditlar ola biladigan jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Ushbu maqsadlarda, ya'ni soxta tadbirkorlik faoliyat bilan shug'ullanish uchun o'z xizmat vakolatidan foydalangan mansabdor shaxslar hamda jismoniy shaxslar jinoyatning sub'ekti bo'lishlari mumkin. Mansabdor shaxsning o'z xizmat vakolatidan jinoiy maqsadlarda foydalangan holatlarda javobgarlik faqat JKning 179-moddasi bilan, balki jinoyatlar jami sifatida JKning 205-moddasiga, ya'ni hokimiyatni yoki xizmat vakolatini suiiste'mol qilganlik uchun belgilanadi.

References:

1. Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus subyektiv. – T.: TDYuI, 2005.
2. Rustambaev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. – T.: Ilm-ziyo, 2006.
3. Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus sub'ekti. – T.: TDYuI, 2005.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: ilmiy-amaliy sharhlar / A.S.Yakubov, R.Kabulov va b. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1997.

⁷ Kraves Yu.P. Otvetstvennost' za prestupleniya v sfere predprinimatel'stva po deytvuyushemu zakonodatel'stvu // Jurnal. Gosudarstva i pravo. – Moskva, 1999. – № 4. – S. 93.; Ugolovnoe pravo. Osobennaya chast'. – Moskva: Noviy Yurist, 1998. – S. 302.; Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu RF / Pod red. Yu.I.Skuratova, V.M.Lebedeva. – M.: INFRA-M, 1998. – S. 391.; Yejov Yu.A. Prestupleniya v sfere predprinimatel'stva. – Moskva: Marketing, 2001. – S. 82-83.; Aistova L.S. Nezakonnoe predprinimatel'stvo. – Sankt-Peterburg: Yuridicheskiy sentr Press, 2002. – S. 175-186.

⁸ Lopashenko N.A. Prestupleniya v sfere ekonomicheskoy deyatel'nosti (Kommentariy k glave 22 UK RF). – Rostov-na-Donu: Feniks, 1999. – S. 60.

⁹ Aistova L.S. Nezakonnoe predprinimatel'stva. – Sankt-Peterburg: Yuridicheskiy sentr Press, 2002. – S. 181.



5. Olingan daromad miqdori faqat JK 188-moddasi qismlarining kvalifikasiya qilish belgilari sifatida ahamiyatga ega. Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami. 1991-2006. 2 jildli. – T.: Adolat, 2006. Birinchi jild.
6. S.S.Niyozova. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 3, (2020), p. 3962.
7. S.S.Niyozova. Reasons for Suicide and the Issue of Responsibility. International Journal of Pharmaceutical Research | Dec 2020 | Vol 12 | Supplementary Issue 3 p. 528.